

PEDAGOGIK MADANIYAT VA KOMPETENTLIKNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Pedagogik madaniyat va kompetentlikning konseptual asoslari va uni rivojlantirish zarurati, kasbiy-pedagogik madaniyat haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik madaniyat, pedagogik ta'lim psixologik, kasbiy faoliyat, kasbiy kompetentlik.*

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda¹. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimining nazariy va amaliy mazmunini takomillashtirish, pedagogik kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, kreativ ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik madaniyat va kompetentlikning konseptual asoslarini tadqiq etish va bu orqali bugungi kun talablariga javob beradigan zamonaviy pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda bo'lajak kadrlarda shakllantirish kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga qo'yilayotgan talablar asosida pedagoglar mahoratini oshirish, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan birga ularning pedagogik madaniyatini ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Chunki bugungi zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tarbiyalash uchun ham yuqori saviyadagi pedagogik mahorat bilan birga pedagogik madaniyat ham talab etiladi. Shu ma'noda bo'lajak pedagoglarning pedagogik madaniyatni va kompetentligining mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi, komponentlarini tadqiq etish va unga yangicha yondashuvlar asosida baho berish ustuvor vazifalardan biridir. Avvalo, pedagogik madaniyat tushunchasining maxmun-mohiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqlik kasb etadi. Kasbiy pedagogik kompetentlik muvofiqiyati qator omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri pedagogik madaniyat bo'lib hisoblanadi.

Madaniyat deganda jamiyatning muayyan tarixaviy rivojlanish bosqichi aloxida bir insonning kuchi va qobiliyati tushunilib u odamlarning xayot va faoliyatini tashkil etish shakllarida ularning o'zaro munosabatlarda hamda ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi. Madaniyat ijtimoiy tushuncha bo'lib jamiyatdan tashqariga mavjud bo'lmaydi. U muloqotda, o'zaro birgalikdagi harakatdan yashaydi va u orqali yetkaziladi va o'z navbatida unga ta'sir qiladi. Madaniyat quyidagi vazifalarni bajaradi:

inson ijodkorligi, bu jamiyatda muayyan turdagi shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga, uning ideal fuqaro to'g'risidagi qarashlari va intilishlariga mos bo'lishga asoslanadi.

tartibga solish, bu har bir jamiyat a'zosining mazkur jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi va ushbu jamiyatda qabul qilingan qoidalar, meyorlar, udumlar tizimini o'zlashtirish orqali ularning o'zaro munosabatlarini boshqarishga asoslanadi.

Madaniyat dinamik rivojlanishdagi ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va odamlarning o'zaro birgalikdagi harakati bilan boyitiladi va shaklan o'zgartiriladi, yangi ko'rinishga ega bo'ladi. Ammo shu bilan birga, aynan madaniyat va uning aniq bir shaxs va jamiyat tomonidan o'zlashtirilishi ichki tayanch nuqta bo'lib, ular ijtimoiy hayotdagi nomaqbul, salbiy hodisalarga qarshi turish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ziddiyatli holatlarida uni hal etish yo'lini topishga yordam beradi. Shaxs madaniyati shakllaridan biri – bu pedagogik madaniyat bo'lib hisoblanadi. Umumiy madaniyat uning asosi bo'lib, u pedagog shaxsi uchun dunyoni anglashda muayyan bir yo'nalish beradi, unga zamon talablariga mos bo'lim imkonini beradi, mulohaza ko'lamini kengaytiradi, analitik qobiliyatlar va konseptual tafakkurni rivojlantiradi. Pedagog shaxsi uchun, jumladan uning kasbiy faoliyati uchun pedagogik madaniyatning ahamiyati beqiyos. Madaniy bilim va qadriyatlar bilan ma'nau boy bo'lgan, madaniy an'analarni chuqur o'zlashtirgan kishigina haqiqiy tarbiyachi, o'qituvchi, pedagog bo'lishi mumkin. O'z navbatida shuni e'tiborga oli lozimki, insonda madaniyatni shakllantirmasdan turib unga ta'lim va tarbiya berish mumkin emas.

Kasbiy-pedagogik madaniyat – intellektual, ijodiy kuchlar va kasbiy-shaxsiy qobiliyatlarning to'la unum bilan ishlashi bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonning ma'lum darajadagi talabi; bu ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati va tarbiyaviy jarayoni, ular orasidagi o'zaro munosabatlarning aniq tashkil qilinishi, pedagogik jihatdan boshqarilishi va qonuniy nazorati; kasbiy-pedagogik faoliyat natijasidir.

Pedagogika ensiklopediyasida kasbiy madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Kasbiy madaniyat – insonning olgan bilim va tajribasiga asoslangan malakali harakatlar yoki mehnat faoliyatining mahsulidan buyon bo'lgan narsalar, o'zgalarda zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisa. Shaxsning kasbiy madaniyati, bilimi, ko'nikmasi, malakasi, qobiliyati, axloqiy va estetik rivojlanishi, dunyoqarashi, odamlar bilan o'zaro muloqot qilish usul va shakllari, iste'dodi darajasida amalga oshiradigan kuchi va salohiyatini o'z ichiga oladi”².

Pedagogik madaniyat esa “... o'qituvchining o'z kasbiy faoliyati jarayonida erishgan yutuqlari, ma'rifatliligi, kasbiy odobi, mahoratini ifodalovchi atama. O'qituvchi pedagogik madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida uning intellektual rivojlanganlik darajasi, kasbiy tafakkuri, kasbiy kompetensiyalari, odobi, imidji, muloqot ko'nikmalari tashkil etadi”³. Demak, pedagogik madaniyat umumiy madaniyatning pedagogik jarayonda namoyon

² Sattorov A.E. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari va texnologiyalari. Avtoreferat, Toshkent v. Chirchiq-2019 yil..

³ Abdullajanova M. A. Formirovaniye professionalnykh kachestv buduyuyego uchitelya v prosesse obucheniya v pedvuzax (na primere uchitelya uzbekskogo yazyka i literatury): Avtoref. diss.... kand. ped. nauk. – T., 1991. – 17 s.

bo'ladigan xususiy ko'rinishidir. Pedagogik madaniyat pedagogik faoliyat ta'sirida vujudga keladi. Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyatning paydo bo'lishida zarur bo'lgan shart-sharoit bo'lib, u pedagogik tajriba, pedagog shaxsi va uning pedagogik faoliyatining rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Pedagogik madaniyatning alohida komponentlari shaxs psixologik xususiyatlariga (yo'nalganlik, temperament, xarakter, qobiliyat) qarab o'ziga xos tusga ega bo'lib, pedagog shaxsining individual portretini hosil qilishi mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, umumiy xususiyatlar bilan birga har bir pedagogning kasbiy madaniyati o'ziga xoslik, individullik va betakrorlikka ega bo'ladi.

Pedagogik madaniyat murakkab tarkibga ega. U o'zidi: umumiy va kasbiy eruditsiya; yuqori darajadagi psixologik-pedagogik bilim; pedagogik yo'nalganlik; bilish faoliyati madaniyati, pedagogik tafakkur madaniyati; nutq madaniyati; pedagogik kechinmalar madaniyati; pedagogik yo'naltirilgan muloqot va xulq-atvor madaniyati; tashqi qiyofa madaniyati; ish joyi madaniyati; pedagogik mahorat kabilarni mujassamlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Sattorov A.E. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari va texnologiyalari. Avtoreferat, Toshkent v. Chirchiq-2019 yil..

3. Abdullajanova M. A. Formirovaniye professionalnykh kachestv buduycego uchitelya v prosesse obucheniya v pedvuzax (na primere uchitelya uzbekskogo yazyka i literatury): Avtoref. diss.... kand. ped. nauk. – T. , 1991. – 17 s.

4. Мамадова, Ф. (2023). БО'ЛАЖАК ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ МУТАХАССИСЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК МАДАНИЯТИ ВА КОМПЕТЕНСИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISHNING ПЕДАГОГИК МОДЕЛИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(7), 266-272.

5. Tursinovich, K. A., Mirzaakhmadovna, M. F., & Alijonovich, E. T. (2022). 'Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 253-255.

6. Qayumovna, R. M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypodynamic factors on the state of physical fitness in students. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 40-43.

7. Mehmonov, R., & Parpiev, O. (2020). PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR PHYSICAL EDUCATION TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 758-761.

8. Меҳмонов, Р. Н. (2023). КУРАШЧИНИНГ УМУМ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛИЁТЛАРИНИ ЎРГАНИШ.

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1302-1311.

9. Nabievich, M. R. (2023). Pedagogical Educational Functions of Future Physical Culture Specialists. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(8), 397-401.

10. Mirzaakhmad, M. F. (2023). Development of Pedagogical Culture and Competence of Future Physical Culture Specialists in Higher Educational Institutions. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 62-68.

11. Xasanov, A. T., Bobojonov, N., & Mamadova, F. M. Methodological approaches to the development of a profesiogram for a physical education teacher. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS) December-2020*.

12. Ibragimovich, A. E. (2023). DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF STUDENTS BY MEANS OF ATHLETICS. *Conferencea*, 1-7.

13. Allomov, E. (2023). ORGANIZATION OF MOVEMENT SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF GAME. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(9), 208-212.

14. Ibragimovich, A. E. (2023). JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O'QITISHDA XARAKATLI O'YINLARNI QO'LLASH USHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(21), 257-262.

15. Ibragimovich, A. E. (2022). DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES IN ATHLETICS IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION OF STUDENTS. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 122-128.

16. Kayumovna, R. M. (2021). Wellness Swimming as a Part of the Physical Education of Students. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences* (pp. 149-152).

17. Qayumovna, R. M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypodynamic factors on the state of physical fitness in students. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 40-43.

18. Козлова, Г. Г., & Рузиева, М. К. (2022). Жисмоний маданият ўқитувчиларининг коммуникатив компетенциясини юксалтириш зарурияти. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(4), 12-17.

19. Ergasheva, O. A. (2022). 11-12 YOSHLI O'QUVCHILARNING TEZKORLIK SIFATINI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(24), 150-153.

20. Салимов, Г. М., Холлиев, А. Э., Норбоева, У. Т., & Эргашева, О. А. (2015). Организация методов исследования через национальные подвижные игры. *Молодой ученый*, (11), 1484-1486.

21. Эргашева, О. А. К. (2022). РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ КАК УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ. *Вестник науки и образования*, (10-2 (130)), 58-61.

22. Hamroyev, A. R., & Ergasheva, O. A. (2023). THE EFFECT OF ACTION GAMES ON THE PHYSICAL DEVELOPMENT AND LEVEL OF PHYSICAL

FITNESS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(18), 67-71.

23. Хасанов, А. Т., Юсупов, Т. Т., & Алломов, Э. И. (2020). ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ ФАКУЛЬТЕТА ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (1), 108-113.

24. Юсупов, Т., & Акзамов, С. (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРЫГУЧЕСТИ У БАСКЕТБОЛИСТОВ 12-14 ЛЕТ. *ЇОДКОР О'ҚИТУВЧИ*, 2(23), 45-49.

25. Mekhmonov, R. (2022). MONITORING OF THE INFLUENCE OF HYPODYNAMIC FACTORS AND PHYSICAL PREPARATION OF STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 11-20.

26. Юсупов, Т. Т. (2023). ГИМНАСТИКА БЎЙИЧА ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ЖАРЁНИНИ БОШҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ. *ЇОДКОР О'ҚИТУВЧИ*, 3(28), 219-224.

27. Юсупов, Т. Т. (2023). ГИМНАСТИКА БЎЙИЧА ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИНИ БОШҚАРИШ ВА УНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 305-311.